XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 20-aprel VI-78-33-10-212-K/24 Toshkent tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-son qarorining ijrosi to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-son qarorining ijrosini tahninlash, suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, suvdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali aholi ongida shakllangan “suv-tekin” tushunchasidan voz kechish hamda suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini kengaytirilgan tartibda joriy etishni tashkillashtirish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari hamda hududiy qishloq xo‘jaligi boshqarmalari har yili 1-aprelga qadar vegetatsiya davri uchun va 1-oktabrga qadar kuz-qish davri uchun yakuniy iste’molchilar kesimida ekinlarni sug‘orish uchun suv olish limitlarini hududlar bo‘yicha tasdiqlangan limit doirasida ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun Xalq deputatlari tuman Kengashlariga kiritilishi belgilanganligi bo‘yicha tartibga ko‘ra taqdim etilgan ma’lumotlami Xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi yig‘ilishi muhokamasida bildirilgan takliflarni e’tiborga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari tuman Kengashininmg 6-chaqiriq 78-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan O‘zbekiston Respublikasining “Soliq va budjet siyosatining 2024-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasi 38-bandiga asosan qishloq xo‘jaligi yerlarini sug'orish va baliqlami yetishtirish (o‘stirish) uchun foydalaniladigan suv hajmi, shu jumladan dehqon xo'jaliklari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 1 kub metr suv uchun 100 so‘m etib belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Chirchiq-Ohangaron irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Toshkent tumani “Suv etkazib berish xizmati” Davlat muassasasi tomonidan ishlab chiqilgan joriy yil vegetatsiya davri uchun tuman chegarasidan olinadigan 63.3 mln.m^3 suv olish limitlarini, kanallardagi suv yo‘qotishlarn inobatga olib 20 foizga kamaytirgan holatda 2098 ta iste’molchilar kesimida ekinlarn sug‘orish uchun suv olish limitlari hududlar kesimida ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Chirchiq-Ohangaron irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Toshkent tumani “Suvetkazib berish xizmati” davlat muassasasi (S.Avezov) tegishlicha “Chirchiq-Ohangaron” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig‘ining tavsiyasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vaziri tomonidan lavozimga tayinlanishi va lavozimdan ozod etilishi hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan bir yilda ikki marta Xalq deputatlari tumani Kengashlariga hisobot berib borishi belgilansin.

5. Tumandagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi suv iste’molchilariga iste’mol qilingan suv miqdori hisobini yuritmagan (yuritishdan bosh tortgan) qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari uchun suv solig‘i bazasi Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlangan limitlarga nisbatan ikki barobar oshirilgan holda hisoblanishi belgilab qo‘yilsin.

6. Tuman hokimligi Axborot xizmati (D.Ismailova) mazkur qaror tasdiqlangandan keyin tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga va tuman “Diyor ovozi” gazeta (S.Matyoqubov) tumanning mahalliy gazetasida e’lon qilinishi nazoratga olsin.

7. Mazkur sessiya qarori ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Toshkent tumani Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi X.Axmedov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi RUSTAMOV ODILXON BAKIYEVICH